



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 2-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: xurdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Latipov Xursandbek

XIVA XONLIGIDA “XONBOZI DAVRI”5-11

Qodirov Najmiddin, O‘tanov Normo‘min

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY
ASOSLARINI SHAKLLANISHI..... 12-22

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Rustamova Sayyora, Abdulhakimova Mohlaroy

TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIIY MADANIYATNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI 23-29

09.00.00- FALSAFA FANLARI

Yazdonov Ulugbek

ZAMONAVIIY DUNYO DRAYVERI SIFATIDA KIRIB KELGAN SUN‘IIY INTELLEKT VA UNING
RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI..... 30-34

Zakirov Shakirdjan, Djuraev Avazbek

THE ROLE OF INTERETHNIC HARMONY IN STRENGTHENING SOCIAL STABILITY IN
UZBEKISTAN 35-42

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Akhrorova Manzura

THE INTERPRETATION OF INNER SUFFERING AND SELF-SACRIFICE IN THE COMPARISON
OF HAMLET AND FARHOD..... 43-46

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Usmonqulov Jo‘rabek

SUN‘IIY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLIY TA‘LIMDA IJODKORLIK VA
TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH..... 47-52

Jumaboev Nabi

POSSIBILITIES OF USING THE AESTHETIC HERITAGE OF ORIENTAL THINKERS IN YOUTH
EDUCATION 53-59

23.00.00- SIYOSIIY FANLAR

Elmurodov Faxriddin

ELEKTORAL MADANIYAT VA UNING JAMIYAT SIYOSIIY HAYOTIDAGI O‘RNI..... 60-65

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMIC SCIENCES*Article / Original Paper***TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA TASHKILIY
MADANIYATNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI****Rustamova Sayyora Xatamovna**

Andijon davlat universiteti "Menejment" kafedrası

v.b.dotsenti, I.f.f.d(PhD)

Email: Rustamova0302@mail.ru

Tel: +998912870005

Abdulahkimova Mohlaroy Baxodirjon qizi

Andijon davlat universiteti Turizm va mehmondo'stlik

Mutahassisligi II bosqich magistranti

Tel: +998940850695

Annotatsiya. Ushbu maqolada turizm sohasida kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari, mazkur jarayonning dolzarbligi va muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm ta'limining nazariy va amaliy jihatlari, mintaqaviy ehtiyojlarga moslashish zaruriyati, yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Muallif turizm xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar bergan. Maqolada dual ta'lim modeli, til kompetensiyasi, madaniy kommunikatsiya, kasbiy psixologik tayyorgarlik kabi muhim aspektlar yoritilgan. Shuningdek, turizm sohasining mavsumiylik, o'zgaruvchan tashqi omillar va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm sektorida kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: turizm ta'limi, kadrlar tayyorlash, yumshoq ko'nikmalar, amaliyot, madaniy kompetensiya, til bilish, raqamli texnologiyalar, dual ta'lim.

**CHARACTERISTICS OF ORGANIZATIONAL CULTURE IN PERSONNEL
TRAINING IN THE FIELD OF TOURISM****Rustamova Sayyora Khatamovna**

Andijan State University, Department of "Management"

Acting Associate Professor, d.f.e. (PhD)

Abdulahkimova Mohlaroy Bakhodirjon kizi

Andijan State University,

Specialization of Tourism and Hospitality

II stage student magistr

Annotation. This article analyzes the specific features of personnel training in the tourism sector, the relevance and problems of this process. The research examines theoretical and practical aspects of tourism education, the need to adapt to regional needs, the importance of soft skills, and the use of modern technologies. The author provides recommendations for improving the personnel training system to enhance service quality in tourism. The article highlights important aspects such as dual education model, language competence, cultural communication, and professional psychological preparation. Furthermore, the study emphasizes tourism sector's close connection with seasonality, changing external factors, and digital technologies. Research findings provide practical recommendations for reforming the personnel training system in Uzbekistan's tourism sector.

Keywords: tourism education, personnel training, soft skills, practical training, cultural competence, language proficiency, digital technologies, dual education.

Kirish. Turizm sohasi bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu soha mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiyalash va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim vositasi sifatida e'tirof etilmoqda. Biroq, turizm sektorining samarali rivojlanishi ko'p jihatdan yuqori malakali kadrlar mavjudligiga bog'liq. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash oddiy ta'lim jarayoni emas, balki ko'p qirrali, kompleks va amaliyotga yo'naltirilgan tizimdir.

Mamlakatimizda turizm sohaaiga keng imkoniyatlar yaratilyapti va sohani barqaror rivojlantirish maqsadida "2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi" ishlab chiqildi. Unga ko'ra 2019-2025- yillarda turizm sohasini rivojlantirishda turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, shu jumladan, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama marketing ishlarini olib borishni takomillashtirish vazifasi qo'yildi.[1]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Tadqiqotchi S.A.Sunnatova[2, p-751] ning fikricha ko'pgina turizm korxonalarida xodimlarni korxonaning yordamchi komponenti deb hisoblab, ularni boshqarishda tegishli darajada e'tibor berilmaydi. Chunki, turizm korxonalarida xodimlar korxonaning, pirovard mahsulotning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va buning uchun korxonalar mijozlardan haq oladi. Masalan, mehmonxonada mehmon nafaqat yashash, xavfsizlik, tozalik uchun, balki mehmonxona xizmatchilarining e'tibori uchun ham haq to'laydi.

H.R. Hamroyev, Turizmologiya o'quv qo'llanmasida [3, P-24] turizm kadr masalasiga to'htalgan. Unda Ukraina olimlari turizmning mohiyatini tushunishga o'z hissalarini qo'shdilar. 1980 yilda Kiyevda M. Krachilning "Turizmni o'rganish asoslari" asari nashr etildi. Unda turizmning xalqlar o'rtasidagi tinchlik va o'zaro tushunishni mustahkamlashga, boshqa xalqlar madaniyati bilan tanishishga, atrofdagi dunyoni chuqur bilishga, dam olish va sog'lomlashtirish, bilim va taassurotlarga ega bo'lish, o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga hissa qo'shadigan faol va cheklanmagan aloqa shakli sifatida keng ko'lamli tavsifi berilgan. Muallif turizmning tasnifi, uning hududiy tuzilishi, kadrlar tayyorlash, rekreatsion resurslarni muhofaza qilish masalalariga e'tibor qaratgan

Tadqiqotchi S.X.Rustamova sodiqlik mezon haqida tubandagilarni ahamiyatli deb biladi. Har qanday tarmoqda faoliyat yuritishi bilan korxonalar uchun yangi raqobatchilarning paydo bo'lish va tarmoqda mavjud raqobatchilar bilan kurashishi xavfi mavjud bo'ladi. Mavjud korxonalar o'z mijozlarini saqlab qolishi uchun o'z mahsulotlariga haridorlar sodiqligiga erishishi zarur. Bunga erishish uchun korxonalar boshqa raqobatchilariga nisbatan mutloq ustunlikka erishishga urinishi kerak. Sifat, qadoqlash va yetkazib berishda raqobatchi korxonalarga nisbatan differensial strategiyani qo'llash orqali o'z ustunliklariga erishishi mumkin bo'ladi. Kirib kelayotgan yangi korxonalar esa xaridorlarni raqobatchi korxonalarga sodiqligini yengish uchun katta texnologik, iqtisodiy investitsiyalar kiritishi lozim bo'ladi. Haridorlar quyidagi hollarda nomdor korxona mahsulotlariga sodiq bo'lishadi:

- tovar yoki xizmatning sifati boshqa raqobatchilarga nisbatan yuqori bo'lganda;

- tovar yoki xizmatdan foydalanayotgan mijozlarning boshqa firma xizmati yoki mahsulotlarini o'zlarida sinab ko'rishga qo'rqishligi, ya'ni yangiliklarni qabul qilishga qo'rqishlik;

- mijozlarni yangi korxona xizmati va mahsulotlarini qo'llashda o'zi uchun yuzaga keladigan noqulayliklarga moslasha olmasligi; [4, 72-77 b]

Mazkur maqolaning maqsadi turizm sohasida kadrlar tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolani yozishda tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullari qo'llanilgan.

Muhokama. Turizm sohasi o'ziga xos tarmoqlardan biri sanaladi, chunki bu yo'nalishda xizmat sifati va inson omili bevosita bog'liq. Bu jihat uni boshqa texnik, hatto iqtisodiy yo'nalishlardagi kasblardan tubdan ajratib turadi. Avvalo, turizm insonlar bilan ishlash, ularning madaniyati, tilini tushunish, qadriyatlariga hurmat bilan yondashish bu kadrlar tayyorlashda yodda tutiladigan eng muhim omillardandir. Shu bois, turizm o'rgatish jarayoni faqat bilim berish emas, balki xulq-atvorni shakllantirish, xizmat madaniyatini o'rgatish bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasiga kirib kelayotgan yoshlar soni ortmoqda, lekin ularning tayyorgarlik darajasi turlicha. Talabaning qanday kafedra, qanday ustoz qo'lida o'qishi ko'p narsani belgilab beradi. Chunki turizm darsni quruq nazariyaga bog'lab qo'yish samara bermaydi. Har bir nazariy mavzuning amaliy jihat bo'lishi kerak.

Turizm malaka oshirish va amaliyotlar alohida mavzu hisoblanadi. Turizm kasbiy ko'nikma tajriba orqali beriladi. Aks holda, o'qiganini hayotda qo'llay olmaydigan yoshlar soni ortib boraveradi. Shu sababli, Germaniyadagi dual ta'lim modeliga o'xshash tizim O'zbekistonda ham joriy etilayotgani to'g'ri qadam bo'ldi. Jumladan Prezidentimizning 18.07.2024 yildagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-269-sonli qarorida [5] turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini amaliyot bilan birga olib borish maqsadida ularning hududlarida budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan amaliyot bazalarini (turoperator, turagent, gid-tarjimon, mehmonxona va turizm transporti xizmatlarini ko'rsatish obyektlari (keyingi o'rinlarda — xizmatlar ko'rsatish obyektlari) belgilangan tartibda tashkil etishga ruxsat berilishi, hamda 2027-yil 1-yanvarga qadar turizm sohasida kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining amaliyot bazalarida ko'rsatilgan xizmatlar uchun foyda solig'i ushbu soliq bo'yicha belgilangan soliq stavkalariga nisbatan 50 foizga kamaytirilgan stavkada to'lanadi. Bunda, ushbu soliq imtiyozini qo'llash natijasida bo'shaydigan mablag'lar tashkil etilayotgan xizmatlar ko'rsatish obyektlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo'naltirilishi ko'zda tutiladi.

Turizm sohasida kadr tayyorlash jarayoni har bir mintaqaning o'ziga xos ehtiyojiga qarab farqlanishi lozim. Masalan, Xiva, Buxoro, Samarqandda ishlaydigan gid, Toshkentdagi biznes-turizm menejeridan butunlay boshqa ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Xorijiy tilni bilish darajasi, tarixiy faktlar haqida xabardorlik, mahalliy urf-odatlar va diniy e'tiqodlarni tushunish bularning bari turli hududlar kesimida farq qiladi.

Turizm xizmat ko'rsatish sifati ko'pincha "soft skills", ya'ni yumshoq ko'nikmalarga bog'liq. Bu degani, talaba faqat mehmonxonadagi rezervatsiyani bilmasligi kerak, balki mijozning kayfiyatini anglab, vaziyatdan kelib chiqib to'g'ri muloqotga kirisha olishi zarur. Bu

esa psixologik yondashuvlarni, kommunikatsiya madaniyatini, konflikt holatlarni boshqarishni o'rgatishni taqozo qiladi.

O'zbekistonda turizm salohiyati yuqori bo'lsa-da, mijozlar sodiqligini boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Mehmonxonalarda yagona loyallik dasturlari mavjud emas, turoperatorlarda engagement monitoring raqamlashmagan, CRM tizimlari cheklangan, personalization past darajada.

Shu bois o'zbek turizmiga mos innovatsion, raqamli loyallik boshqaruv modeli yaratish dolzarb hisoblanadi va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

“Sifat” tushunchasi mehmonxona industriyasida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi:

1) Sifat mijozlarning ehtiyojlarini aniq bilish va so'ngra ularni aniq bajarishni nazarda tutadi. Ma'lum xizmatlarni taklif etish va ularning sifatini doimo yaxshilashga intilish xizmatlar bozorida raqobat afzalliklariga erishishga imkon beradi;

2) Sifat to'g'ri va to'laqonli xizmat ko'rsatishni talab qiladi;

3) Sifat doimiy bo'lishi, bir turdagi xizmatlar esa ko'p marta takror va doimo sifatli amalga oshirilishi lozim.[6]

Xizmat ko'rsatish korxonalari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga ta'sir e'tuvchi omillar jami 11 ta asosiy omil mavjud. Bular: madaniy va etnik omillar, global iqtisodiyshart-sharoitlar, marketing va xizmat ko'rsatish strategiyalari, ijtimoiy omillar, xarajatlar hajmi va moliyaviy resurslar, xaqobat muhiti, qonun va huquqiy muhit, mehnat bozoridagi mavjud holat, texnologik rivojlanish, bozordagi talab va taklif.

Xizmat ko'rsatish korxonalari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar faoliyatini o'rganish, ularning samaradorligini baholash va yangi ilg'or mexanizmlarni joriy etish nafaqat ularning raqobatbardoshligini oshiradi, balki xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, tashkilot-iqtisodiy mexanizmning ilmiy asosda ishlab chiqilishi va samarali qo'llanilishi korxonaning mustahkam bozor pozitsiyasini yaratadi.[7]

Turistik xizmatlarda sodiqlikka ta'sir qiluvchi omillar

- ✓ servis sifat
- ✓ ishonch (trust)
- ✓ brend imiji
- ✓ narx-sifat nisbati
- ✓ personal munosabati
- ✓ personalization
- ✓ Xizmat sifati (gid, transport, mehmonxona).
- ✓ Narh siyosati.
- ✓ Tur xavfsizligi.
- ✓ Emotsional tajriba.
- ✓ Yangi xizmatlarni taklif qilish strategiyasi.

Turizm sohasining yana bir nozik tomoni mavsumiylik hisoblanadi. Qishda ish hajmi bir xil, yozda esa keskin oshadi. Bu esa kadrlardan moslashuvchanlik talab qiladi. O'zbekistonda turizm uchun kadrlar tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bugungi turist mobil telefon, QR-kod, onlayn bron qilish, Google Maps, TripAdvisor orqali harakatlanadi. Talaba bu texnologiyalarni

o'rganmasa, ish jarayonida qiynaladi. Shunga qaramay, ayrim oliygohlarda bu sohalarga yetarli e'tibor berilmaydi yoki faqat nazariy jihatdan o'qitiladi. Natijada yoshlar zamonaviy ish uslublariga tayyor bo'lmaydi. Bugungi turizmda axborot texnologiyalari sohasining ahamiyati keskin ortmoqda. Virtual ekskursiyalar, kengaytirilgan reallik texnologiyalari, onlayn muzeylar, avtomatlashtirilgan rezervatsiya tizimlari bularning barchasi zamonaviy turizmning ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Demak, turizm sohasida ta'lim olayotgan har bir talaba hech bo'lmaganda asosiy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalana olishi kerak. Yana bir muammo til bilish masalasi hisoblanadi. Ko'pchilik abituriyent ingliz tilini past darajada bilgan holda o'qishga kiradi. Turizm sohasida ishlash uchun til bilish yetarli emas, tilni turizm kontekstida bilish kerak. Ya'ni, oddiy grammatikani emas, balki turistik suhbatlar, madaniy ifodalar, protokol so'zlashuv, etiket va rasmiy muloqotni o'rgatish lozim. Bu borada ba'zi oliy ta'lim muassasalari maxsus turizm ingliz tili, nemis tili, rus tili darslarini yo'lga qo'ygan. Turizm sohasida kadrlar tayyorlash masalasi ko'pchilikka oddiy ko'rinishi mumkin, til biladigan, madaniyatli, chiroyli so'zlaydigan inson bo'lsa yetarli degan qarash hanuzgacha ayrim doiralarda mavjud. Ammo amaliyot ko'rsatadiki, bu yetarli emas. Chunki xizmatlar sohasida insonning jismoniy va ruhiy bardoshi, stressga chidamliligi, muloqotda yumshoq, lekin irodali bo'lishi kabilar ham muhim ko'rsatkichlar sanaladi. Bu esa nafaqat bilim, balki mahorat, ya'ni kasbiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladi [8, 42-45p].

Yana bir o'ziga xos jihat turizmda har bir mutaxassisga universal yondashuv emas, balki aniq kasbiy rollar doirasida yondashish zarurati hisoblanadi. Masalan, gid, ekskursovod, tur-operator, mehmonxona administratorining har biri turli kompetensiyalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Turizmda axloqiy va madaniy mas'uliyat muhim ahamiyat kasb etadi. Xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis nafaqat o'zini, balki butun mamlakatni namoyish etadi. Turistlar, ayniqsa xorijliklar, u bilan muloqotda bo'lib, o'zbek xalqining mentaliteti haqida xulosa chiqaradi. Shu sababli bu sohada ishlaydigan insonlarga milliy qadriyatlar, odob-axloq, kommunikativ madaniyat, diniy bag'rikenglik kabi tushunchalar chuqur o'rgatilishi kerak. Aks holda, xizmat ko'rsatish jarayonida madaniy tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Turizmda ijtimoiy kontekst o'ta muhim hisoblanadi. Bu degani, xodim nafaqat mehmon bilan muomala qiladi, balki jamiyatdagi ijtimoiy kayfiyat, madaniy stereotiplar, mahalliy urf-odatlariga ham e'tiborli bo'lishi kerak. Shu bois, turizm sohasidagi ta'limga madaniy kompetensiya degan tushuncha kirib kelmoqda. Bu kompetensiya o'quvchi yoki talabaning boshqa madaniyat vakillari bilan muomala qilishda xatoga yo'l qo'ymasligini ta'minlaydi. O'zbekistonda bu borada dastlabki izlanishlar olib borilmoqda, lekin hali tizim darajasiga ko'tarilgani yo'q.

Turizmda kadrlar faqat yangibitiruvchilargina emas, balki faoliyat yuritayotgan xodimlar orasidan ham tanlab, qayta tayyorlash orqali yetishtirilishi kerak. Hozirgi paytda mehmonxonalar, restoranlar, agentliklarda yillar davomida ishlagan xodimlar bor, ammo ularning aksariyati formal ta'lim olmagan. Ular ishni tajriba orqali o'rganib ketgan. Shunday bo'lsa-da, bugungi talablar ularni sertifikatlash, qayta o'qitish, xizmat sifatini standartlashtirishni taqozo qilmoqda.

Turizm sohasi bo'yicha mutaxassislar doimiy o'zgarib borayotgan global tendensiyalarni ham kuzatib borishi shart. Ya'ni ular xalqaro turizm qonunlari, ekologik talablar, sog'lomlashtiruvchi turizm, raqamli marketing, iqlimga moslashgan xizmatlar haqida xabardor bo'lishi lozim. Yangi tendensiyalar orasida ekologik va mahalliy turizmning o'sishi, yoshlar turizmi, tibbiy turizm va ekstremal turizm kabi yo'nalishlar mavjud. Bu yo'nalishlar

har biri alohida kompetensiyalarni talab qiladi. Masalan, tog' turizmi gidiga birinchi tibbiy yordam, xavfsizlik, xavf tahlili kabi bilimlar kerak.

Turizm sohasi uchun kadr tayyorlash jarayonining o'ziga xosligi shundaki, bu soha doimiy ravishda tashqi omillarning ta'siriga uchraydi. Siyosiy vaziyat, pandemiya, valyuta kursi, ekologik holat bularning barchasi turizm oqimiga ta'sir qiladi. Demak, bu sohada ishlovchi mutaxassis har doim o'z ishini yangi kontekstda, o'zgaruvchan sharoitlarda tashkil eta oladigan bo'lishi kerak.

Yana bir kam ko'tariladigan, lekin juda muhim mavzu turizm xavfsizlik hisoblanadi. Xodim favqulodda holatlarda o'zini qanday tutishi kerak, xorijiy mehmon bilan ziddiyatli vaziyatda qanday harakat qiladi, yoki sog'liq bilan bog'liq holatda qanday yo'l tutadi bularning barchasi o'rgatilishi lozim.

XULOSA. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm sohasida kadr tayyorlash umumiy yondashuvlar bilan cheklanmasligi kerak. Bu yo'nalish har bir detalga:

- muloqot,
- madaniyat,
- texnologiya,
- xavfsizlik,
- til,
- moslashuvchanlik,

- mavsumiylik, amaliyot kabi jihatlar alohida e'tibor qaratishni talab qiladi. Har qanday yuzaki yondashuv xizmat sifatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchiidan, turizm ta'limida nazariya va amaliyotning muvozanatini ta'minlash zarur. Dual ta'lim modelini keng joriy etish, real ishlab chiqarish sharoitlarida amaliyotlarni tashkil etish, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Ikkinchiidan, mintaqaviy ehtiyojlarni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish lozim. Har bir turizm hududi o'z xususiyatlariga ega bo'lganligi sababli, yagona standart dastur barcha hududlar uchun mos kelmaydi.

Uchinchiidan, yumshoq ko'nikmalar, kasbiy psixologik tayyorgarlik, madaniy kompetensiya va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berish talab etiladi. Turizm xizmat sifati ko'p jihatdan bu ko'nikmalarga bog'liq.

To'rtinchiidan, chet tillarini o'rgatishda turizm kontekstini hisobga olgan maxsus dasturlar yaratish, professional terminologiya va xizmat ko'rsatish tiliga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchiidan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarur. Raqamli texnologiyalar turizmning ajralmas qismiga aylanganligini hisobga olsak, bu jihat alohida ahamiyatga ega.

Oltinchiidan, faoliyat yuritayotgan xodimlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, sertifikatlash jarayonlarini joriy etish lozim.

Yettinchiidan, o'qituvchilar malakasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlar bilan tanishtirish, xalqaro tajribalarni o'rganishga yo'naltirish talab etiladi. Sakkizinchiidan, mehnat bozori talablari va ta'lim mazmuni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlovchi monitoring tizimini yaratish va samarali ishlashini ta'minlash zarur.

Turizm sohasida o'quvchi emas, aynan amaliyotchi, faol harakatlanuvchi, ochiq fikrli va sadoqatli kadrlar kerak. Faqat kompleks yondashuv, barcha jihatlar alohida e'tibor berish va

doimiy takomillashtirish orqaligina yuqori malakali, zamonaviy talablarga javob beradigan turizm mutaxassislarini tayyorlash mumkin. Bu esa o'z navbatida O'zbekiston turizm sektorining raqobatbardoshligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash va mamlakatimizning turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. <https://lex.uz/ru/docs/6549286> Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-238-sonli qarori
2. [Sunnatova S.A.](#) TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASH MUAMMOSI VA ULARGA QO'YILGAN TALABLAR <http://www.scientificprogress.uz/> SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021, 751 p
3. H.R. Hamroyev, Turizmologiya / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. 24 b.
4. Rustamova, Sayyora (2025) STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5 (4s). pp. 72-77.
5. <https://lex.uz/ru/docs/-7031185> 18.07.2024 yildagi "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-269-sonli qarori
6. F.Xalimova. Mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirish xizmatini boshqarish. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 286 b.
7. Yoriyeva D.O. Xizmat ko'rsatish korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish "O'zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro
8. Hamdamova D. Turizm xodimlari uchun kasbiy psixologik tayyorgarlik omillari. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar jurnali. 2021, №2, 42-45-betlar.

HUMANSIENCES.UZ

№ 2 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com